

QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI KLASTER ASOSIDA TASHKIL ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ibragimov Salohiddin Ochilovich PhD, dotsenti

Annotatsiya: Maqolada qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari, iqtisodiy samaradorligi va xalqaro tajriba asosida rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Klaster modelining ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. O'zbekiston sharoitida hududiy klasterlarni shakllantirish imkoniyatlari statistik ma'lumotlar asosida baholangan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, sanoat klasteri, hududiy rivojlanish, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, eksport salohiyati.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qurilish materiallari sanoati mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish, investitsion loyihalarni amalga oshirish hamda aholini uy-joy bilan ta'minlash jarayonida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur tarmoqning barqaror rivojlanishi milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda sanoatni tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida sanoat tarmoqlarini chuqur qayta ishlash asosida rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni

kengaytirish hamda hududiy sanoat salohiyatidan samarali foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada sanoatda klaster yondashuvini keng joriy etish orqali ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish va qo‘shilgan qiymatni oshirish alohida ta’kidlangan. Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonda sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish vazifalari belgilangan. Mazkur hujjatda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish orqali import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish zarurligi qayd etilgan.

Shu bilan birga, 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish, xom ashyo bazasini kengaytirish hamda eksportni ko‘paytirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Ushbu qaror tarmoqni hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlantirish va klaster tamoyillarini joriy etish uchun mu him huquqiy asos yaratdi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sanoatni, xususan qurilish materiallari tarmog‘ini rivojlantirishda klaster modelining dolzarbligini ko‘rsatadi. Klaster yondashuvi ishlab chiqaruvchilar, xom ashyo yetkazib beruvchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va ta’lim tashkilotlarini yagona tizimga birlashtirish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni jadallashtirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlash imkonini beradi.

Shunday qilib, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy va institutsional sharoitlar ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur tadqiqot ana shu dolzarb vazifalardan kelib chiqib, qurilish materiallari sanoatida klaster modelini joriy

etishning nazariy-uslubiy asoslarini hamda rivojlanish istiqbollarini tahlil qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi: Klaster nazariyasi ilk bor M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning "Milliy raqobat afzalliklari" konsepsiyasida klaster muayyan hududda joylashgan va o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalar, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar tizimi sifatida talqin etiladi. Maykl Porterning ta'kidlashicha, klasterlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, balki innovatsiyalarni tezkor joriy qilish va bozorni kengaytirishga xizmat qiladi[1]

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Germaniya, Italiya, Xitoy va AQSh kabi mamlakatlarda klasterlar sanoat samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni jadallashtirish va eksportni kengaytirishda muhim rol o'ynagan.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqot qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ilmiy izlanish jarayonida kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotda iqtisodiy jarayonlar o'zaro bog'liqlik va integratsiya tamoyillari asosida tahlil qilindi hamda klaster modelining sanoat samaradorligiga ta'siri baholandi.

Tadqiqotning nazariy asosini sanoat iqtisodiyoti, hududiy rivojlanish va klaster nazariyasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Xususan, klaster konsepsiyasining nazariy qoidalari, qo'shilgan qiymat zanjiri modeli va raqobatbardoshlik nazariyalari tadqiqotning metodologik poydevori sifatida xizmat qildi.

Taxlil va natijalar

O'zbekiston uchun qurilish materiallari sanoatida klasterlarni tashkil etish masalasi alohida ahamiyatga ega. Mamlakatdagi xom ashyo resurslarining boyligi (sement, gips, tosh va boshqa qurilish materiallari uchun xom ashyo) klasterlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Masalan, Namangan va Farg'ona vodiylarida sement ishlab chiqarish bo'yicha maxsus klasterlar tashkil etish tashabbusi logistika xarajatlarini qisqartirish va ichki bozor talabini qondirishda

muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, davlat tomonidan xom ashyo resurslaridan foydalanish bo'yicha qo'shimcha subsidiyalar ajratish va soliq imtiyozlari berish kabi choralar ko'rilsa, klasterlarning samaradorligi yanada oshishi mumkin.

Klasterlar sanoatda ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, «Sanoat 4.0» texnologiyalari klaster ishtirokchilari o'rtasida ma'lumot almashinuvini tezlashtiradi, ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtiradi va mahsulot sifatini nazorat qilishni yaxshilaydi. Sanoat 4.0 - bu zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish va sanoat jarayonlarini aqlli tizimlar asosida avtomatlashtirish, raqamlashtirish va tarmoqlashtirish jarayonidir.

Bu atama birinchi marta Germaniyada ilgari surilgan va hozirda butun dunyoda keng qo'llanilmoqda.

Masalan, jahon tajribasida qurilish materiallari ishlab chiqarishda «aqlli zavod» modellari joriy etilgan bo'lib, bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini 15-20%ga oshirgani kuzatilgan.[2]

Ushbu fikrlarning barchasi klasterlarning sanoat rivojlanishidagi ahamiyatini yanada aniqlashtirishga yordam beradi. Ular ishlab chiqarish jarayonlarini hamohang va samarali tashkil etish orqali nafaqat milliy iqtisodiyotni, balki butun hududiy rivojlanishni ta'minlaydi. Klasterlarning O'zbekiston sharoitidagi rivojlanish istiqbollari xom ashyo resurslari, inson kapitali va davlat qo'llab-quvvatloviga bog'liq bo'lib, ushbu omillarni to'g'ri yo'naltirish mamlakatning qurilish materiallari sanoatida yuqori samaradorlikka erishishini ta'minlaydi. Klaster modeli sanoatni rivojlantirishda muhim innovatsion yondashuv bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy manfaatlarni ko'paytirish imkoniyatini beradi. Ushbu modelning asosi iqtisodiy va tarmoqlararo hamkorlikka qurilgan bo'lib, u xom ashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, ta'lim va tadqiqot muassasalari hamda xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarni bir tizimga birlashtiradi.

Klaster modeli bir qator afzalliklarga ega. Birinchi navbatda, klasterning asosiy xususiyati ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar o'rtasidagi uzluksiz hamkorlikdir. Bu korxonalarning o'zaro bog'liqligi mahsulot ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga yordam beradi. Masalan, Germaniyadagi avtomobil sanoati klasterlari doirasidagi hamkorlik natijasida xom ashyo yetkazib berish jarayoni 25%ga tezlashgan va umumiy ishlab chiqarish xarajatlari 15%ga qisqargan.[3] Shuningdek, klaster ishtirokchilari xom ashyo va energiya resurslarini umumiy tarzda taqsimlash orqali xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Masalan, qurilish materiallari sanoatida xom ashyoni birgalikda xarid qilish jarayonlari logistika xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirishi mumkin.

Ikkinchi jihati, klaster doirasida innovatsiyalarni joriy qilish uchun qulay muhit yaratiladi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari va ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik tarmoqning ilm-fan asosida rivojlanishiga yordam beradi. Masalan, AQShdagi biotexnologiya klasterlari innovatsiyalarni joriy qilish orqali mahsulot sifatini 40%ga oshirishga erishgan. Shuningdek, klaster modellari doirasidagi sub'ektlar yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va biznes jarayonlarni o'zlashtirishda o'zaro tajriba almashadi.

Uchinchi afzalligi, klaster modellari ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Klaster ishtirokchilari ko'p hollarda birgalikda marketing strategiyalari ishlab chiqadi, bu esa ularning mahsulotlari uchun yanada keng bozor imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, Italiyadagi mebel sanoati klasterlari eksport hajmini 35%ga oshirishga muvaffaq bo'lgan.[5] Bunda klaster ishtirokchilari o'rtasidagi strategik hamkorlik muhim rol o'ynagan.

To'rtinchi jihati, klaster modeli mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ham hissa qo'shadi. Klasterlar doirasidagi sub'ektlar o'rtasidagi integratsiya yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy xom ashyo resurslaridan foydalanish darajasini oshirish va mahalliy biznesni qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyat yaratadi. O'zbekistonda bu xususiyat ayniqsa dolzarb, chunki mamlakatda qurilish materiallari ishlab chiqarishda foydalanilmagan resurslar hali ko'p. Davlat statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra,

2023 yilda mamlakatda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 10,5%ga oshgan bo'lsa-da, tarmoqning eksport salohiyati yetarli darajada rivojlanmagan.[4]

Klasterlarni joriy etish ushbu sohadagi muammolarni hal qilishga xizmat qilishi mumkin. 1-jadval orqali klaster modelining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini qiyoslab ko'rish mumkin.

1-jadval

Klaster modelining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Klastersiz ishlab chiqarish	Klaster doirasida ishlab chiqarish
Xom ashyo xarajatlari	100%	85%
Raqobatbardoshlik indeksi	70%	95%
Innovatsiyalar joriy etilishi	50%	80%
Eksport hajmi	100%	130%

1-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, klaster modeli ishlab chiqarishda samaradorlikni oshiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Klastersiz ishlab chiqarishda xom ashyo xarajatlari 100% bo'lsa, klaster doirasida ular 85% gacha qisqarib, xarajatlar 15%ga kamayadi, bu esa resurslardan samarali foydalanish va logistika xarajatlarining qisqarishi bilan izohlanadi. Raqobatbardoshlik indeksi klastersiz ishlab chiqarishda 70% ni tashkil qilsa, klaster doirasida 95%ga yetib, 25% ga oshadi, bu esa korxonalar o'rtasida integratsiya, qo'shilgan qiymat zanjiri shakllanishi va mahsulot sifatining oshishi hisobiga yuzaga keladi. Innovatsiyalar joriy etilishi klastersiz ishlab chiqarishda 50% bo'lsa, klaster doirasida 80%ni tashkil etib, 30% ga yuqori bo'lmoqda, bu ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi hamkorlik hamda davlat qo'llab-quvvatlashi natijasida yangi texnologiyalarni tezroq joriy etish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Eksport hajmi ham klastersiz holda 100% bo'lsa, klasterlashuv sharoitida 130% ni tashkil qilib, 30% ga ortgan, bu esa mahsulot sifatining oshishi, tannarxning pasayishi va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikning kuchayishi bilan izohlanadi. Demak, klasterlashuv ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni

oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekiston uchun xalqaro tajribani o'rganish sanoat klasterlarini samarali joriy qilishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatdagi boy xom ashyo resurslari va ishlab chiqarish quvvatlari klaster modellarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Xususan, qurilish materiallari sanoatida klasterlarni tashkil etish orqali resurslarning samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport hajmini ko'paytirish mumkin. Davlat statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 10,5%ga oshgan, ammo tarmoqning eksport ulushi hali ham past darajada qolmoqda.¹ Bu esa xalqaro tajriba asosida klaster modellarini joriy qilish zarurligini ko'rsatadi.

2-jadval orqali turli rivojlangan mamlakatlar klasterlarining iqtisodiy samaradorligini qiyoslash mumkin.

2-jadval

Rivojlangan mamlakatlar sanoat tarmoqlarida klasterlarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari²

Mamlakat	Klaster turi	Eksport hajmi o'sishi (%)	Xarajatlar qisqarishi (%)	Innovatsiyalar joriy etilishi (%)
Italiya	Mebel sanoati	35%	20%	50%
Germaniya	Avtomobil sanoati	20%	15%	70%
Xitoy	Qurilish materiallari	25%	25%	60%
AQSh	IT Texnologiyalar	40%	30%	90%

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari, 2023 yil.

² www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, klaster modellari qurilish sanoatini rivojlantirishdagi eng samarali vosita hisoblanadi. Bu modellar O'zbekistonda ham muvaffaqiyatli joriy etilishi mumkin, bu esa mahalliy iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishi va global bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda sanoatni rivojlantirish, xususan, qurilish materiallari sanoatida klaster modelini joriy etish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning xom ashyo resurslari boyligi, geografik joylashuvining qulayligi va rivojlanayotgan infratuzilmasi klasterlarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ushbu yo'nalishda mavjud resurslarni samarali tashkil etish va global bozordagi raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun xalqaro tajriba va ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda tuzilmalar yaratish zarur.

Hozirgi kunda O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Davlat statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 10,5%ga oshgan. Bu o'sish, asosan, mahalliy talabning ortishi va hududiy qurilish loyihalari kengayishi bilan bog'liq. Bunda klaster modellarini joriy qilish mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va sanoatning umumiy samaradorligini ko'tarish uchun samarali yechim bo'lishi mumkin.

O'zbekistonning mahalliy xom ashyo resurslari qurilish materiallari sanoatida klasterlar tashkil qilish uchun juda katta ahamiyatga ega. Masalan, Namangan, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlaridagi sement, gips va tosh xom ashyo resurslari ushbu hududlarda klaster tashkil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Navoiy viloyatidagi sement ishlab chiqarish quvvatlarini birlashtirish va logistika xarajatlarini qisqartirish uchun maxsus klaster yaratish tashabbusi ijobiy natija beradi. Xitoy va Germaniya tajribalari asosida ushbu klasterlarda innovatsiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mahsulot sifatini nazorat qilishni yaxshilash bo'yicha ishlar olib borilishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim institutsional mexanizmi hisoblanadi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, klaster modeli ishlab chiqarish jarayonlarini tizimlashtirish, qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash orqali tarmoqning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Amaldagi holatda xom ashyo resurslaridan foydalanish darajasi yetarli emasligi, logistika xarajatlarining yuqoriligi hamda eksport ulushining pastligi kuzatilmoqda. Klasterlashuv natijasida esa xom ashyo xarajatlari o'rtacha 15%ga qisqarishi, eksport hajmi 30%gacha oshishi va innovatsiyalar joriy etilishi 30%ga ko'payishi mumkinligi aniqlandi.

Hududiy klasterlar tashkil etilishi ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, transport-logistika tizimini optimallashtirish hamda mahalliy xom ashyo bazasini chuqur qayta ishlash imkonini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan uyg'unlashgan klaster modeli ishlab chiqarish quvvatini 25%ga oshirish, energiya sarfini 20%ga kamaytirish va umumiy xarajatlarni 15%ga qisqartirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, klasterlashuv qurilish materiallari sanoatini barqaror va innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'lib, milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini tezlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Hududiy ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish. Sement, gips, beton va boshqa qurilish materiallari yo'nalishida xom ashyo resurslari mavjud hududlarda (Navoiy, Qashqadaryo, Namangan va boshqalar) maxsus sanoat klasterlarini tashkil etish zarur.

2. Ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan sanoat korxonalari o'rtasida innovatsion hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, qo'shma ilmiy-amaliy loyihalarni moliyalashtirish maqsadga muvofiq.

3. Raqamli transformatsiyani jadallashtirish. Qurilish materiallari ishlab chiqarishda Sanoat 4.0 elementlarini joriy etish, aqlli monitoring tizimlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmlarini keng qo'llash lozim.

4. Davlat qo'llab-quvvatlov mexanizmlarini takomillashtirish. Klaster ishtirokchilari uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash choralari kengaytirish hamda investitsion rag'batlarni kuchaytirish tavsiya etiladi.

5. Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zanjirini rivojlantirish. Xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini takomillashtirish, eksport logistikasini soddalashtirish va tashqi bozorlarda marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

6. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini rivojlantirish. Klaster doirasida zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalariga mos mutaxassislar tayyorlash hamda dual ta'lim tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, qurilish materiallari sanoatida klaster modelini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan yondashuv va tizimli islohotlar amalga oshirilishi mamlakat sanoatining raqobatbardoshligini yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. McKinsey & Company (2022). "Smart Factories and Their Role in Modern Manufacturing"
2. Porter, M. E. (1998). "Clusters and the New Economics of Competition." Harvard Business Review.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari, 2023 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi Yozbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 23 maydagi PF-4335-sonli farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2022 y. PQ-139-son "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori
8. Sh.N.Zaynutdinov Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, sentabr, 2011 yil
9. M.K. Ziyaev O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qurilish sohasining tiklanish va rivojlanish bosqichlari. Memorchilik va qurilish muammolari SamGASI 2016
10. R.I.Nurimbetov Toshmuxammedova K.S. Qurilish industriyasida innovatsion boshqarish usullarini joriy etishga ta’sir etuvchi omillar //Arxitektura. Qurilish. Dizayn. Ilmiy – amaliy jurnal, Izdatelstva TASI; Toshkent, 2016 №2.
11. I.X.Davletov Qurilish iqtisodiyoti. TAQI Toshkent 2019
12. A.D Metyakubov Upravlenie resursnoy bazoy i investitsiyami v proizvodstve stroitel'nykh materialov. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES Volume: 03 Issue: 10 - Oct 2022 ISSN: 2660-5317 <https://cajotas.centralasianstudies.org>
13. S.O.Ibragimov “Respublikamizda qurilish materiallari sanoatini rivojlanish tendensiyalari”/ Arxitektura, Qurilish va Dizayn. Ilmiy – amaliy jurnal, TAQU. Toshkent, 2023 №4.
14. Saidov Mash’al Samadovich (2021) Tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarishda raqobat muhitini rivojlantirish. Ekonomika i obrazovanie №4. 2021/8/30
15. S.O.Ibragimov “Qurilish materiallari ishlab chiqarishda innovatsion klasterlarni tashkil qilishni rivojlantirish istiqbollari “Ta’lim, fan va ishlab chiqarish

integrasiyasi asosida ilm-fan va innovasion yutuqlarni takomillashtirish istiqbollari”
197-202 b. SamDAQI 2021-yil.